IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

ZAMONAVIY TURIZM SOHASIDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Majidova Mahliyo Shomilovna
QarDU Iqtisodiyot fakulteti
Turizm yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Email: mahliyomajidova45@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20160913

Annotatsiya: Ekologik toza texnalogiyalar, energiya tejamkor infratuzilma va resurslardan oqilona foydalanish tizimi turizm korxonalarining xarajatlarini anchagina kamaytiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi, hamda bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Yashil yondashuv asosida tashkil etilayotgan imkoniyatlar turizm faoliyatidagi muhitning muhofaza qilinishi bilan bir qatorda, hududning investitsion jozibadorligini yaratishga xizmat qiladi. Ekologik innovatsiyalar sayyohlar uchun keng-ko‘lamda xavfsiz va sog‘lom muhit yaratib, turistik hududlarning ham uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, ekologik tamoyillarga amal qilish milliy turizm brendining ijobiy imijini shakllantirib, xalqaro bozordagi talabni yanada oshiradi. Natijada turizm sohasida uzluksiz iqtisodiy o‘sish paydo bo‘lib boradi, bandlik orqali daromadlar ko‘payadi va aholi farovonligi yaxshilanadi. Ushbu maqolada aynan ekologik tamoyillar orqali turizmni rivojlantirish bosqichlari tahlil qilinadi va O‘zbekistonda ekologik turizmni xalqaro miqyosda tanitish ilmiy manbalar orqali yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: turistik firmalar, innovatsiyalar, IoT tizimlari, bibliometrik tahlil, pandemiya, yashil texnologiyalar

Kirish: Turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanib, deyarli barcha davlatlarda bu soha yetakchilik qilib bormoqda. Shu bilan birga, turizm faoliyati atrof-muhitga, ijtimoiy hayotga va iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan turizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror turizm iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, innovatsiyalar ushbu jarayonning asosiy drayveri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda barqarorlik va innovatsiya tushunchalarining turizm bilan integratsiyasi tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, **COVID-19** pandemiyasidan so‘ng turizmni qayta tiklashda innovatsion va ekologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etdi. Sababi dunyo bo‘ylab amalga oshirilayotgan sayohatlar to‘xtatib qo‘yildi, turistlar soni keskin tushib ketdi, turizmdan kelayotgan daromat ancha kamaydi, bir qancha ish o‘rinlari yo‘qoldi, umuman olganda virusli epidemiya holati eng katta zararni ushbu sohaga yetkazdi. Ammo natijada raqamli texnalogiyalarga bo‘lgan e’tibor ko‘chaytirilib, soha yanada zamonaviy ko‘rinishda mijozlarga taqdim qilindi. Onlayn bronlash tizimlari yana ham kengaytirildi, virtual turlar (3D sayohatlar) paydo bo‘ldi, mobil ilovalar orqali turli-xil xizmatlar ko‘rsatila boshlandi. Hozirda esa deyarli barcha mamlakatlarda turizm sohasiga bo‘lgan talab ortib, uni yanada rivojlantirish uchun ko‘plab yangiliklar joriy etilmoqda. Aynan shu texnalogiyalardan samarali usulda ekoturizmni rivojlantirish uchun ham foydalanishimiz mumkin. Chunki biz hozir yashab kelayotgan davr axborot texnalogiyalari asri hisoblanadi va hozir ko‘pchilik insonlarning ongiga ta’sir o‘tkazish oson, chunki ijtimoiy tarmoqlardan deyarli barcha insonlar, ayniqsa yoshlar ko‘proq foydalanishadi. Statistik malumotlarga ko‘ra dunyoda taxminan 67% odam, ya’ni har 3 kishidan 2tasi ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi. Lekin juda ko‘p foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan bemaqsad, faqatgina xordiq chiqarish uchun foydalanmoqda. Shuning uchun texnalogiyalardan insonlarga tabiatni asrash va ekologik muhit yaratishni o‘rgatishda foydalanish anchagina

samarali vazifa hisoblanadi. Hozirda juda ko‘p odamlar ekologik muhitni buzish qanday yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin ekanligini, yani resurslar kamayishi natijasida insonlar ehtiyojlari qondirilmay qolishini (chuchuk suv muammosini misol qilib olishimiz mumkin), havoning zaharlanishi va insonlarda yangicha kasalliklar paydo bo‘lishini, muzliklardagi muzlar erib okeandagi sho‘r suvlar ko‘payishi va suv toshqinlari bo‘lishini bilishsa ham tabiatga zarar yetkazishda davom etishmoqda. Ko‘plab davlatlar hukumati tomonidan, xususan yurtimizda olib borilayotgan ekologik xavflarni oldini olish maqsadidagi bir qancha chora-tadbirlar insoniyat salomatligini yaxshilash va xavfsizligini ta’minlash uchun juda zarur. Ammo bunday tashabbuslar ko‘p ham foyda beravermaydi, bunday paytlarda texnalogiyalardan insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishda foydalanish esa yaxshi samara berishi mumkin.

Asosiy qism: Hozirgi davrida insonlarning turizmga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda, sababi ko‘plab innovatsion texnalogiyalar sohaga izchil joriy etilib, sohadagi zamonaviy muhit yaratilmoqda. Turistik firmalar yoki tur aperatorlar tomonidan ko‘plab mijozlarga yaxshi xizmatlar ko‘rsatilib, ularning ishonchi va ehtiyojlari qondrilayotgan bo‘lsada ammo dunyo bo‘ylab amalga oshirilayotgan ko‘plab turistik sayohatlar ortidan ba’zi ekologik xavflar namoyon bo‘lmoqda. Bu xavflarni oldini olishga jiddiy e’tibor qaratilmasa, nafaqat iqtisodiy sohalar, balki yashab turgan hayotimiz ham izidan chiqishi hech gap emas.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barqaror turizm va innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora chuqurlashib bormoqda. Tadqiqotchilar tomonida olib borilgan tizimli tahlilga ko‘ra, 2017–2021 yillar oralig‘ida ushbu yo‘nalishda chop etilgan ilmiy maqolalar soni sezilarli darajada oshgan. Tadqiqot natijalari barqarorlik turizmda innovatsiyaga nisbatan ko‘proq o‘rganilganligini, ammo ularning o‘zaro integratsiyasi hali yetarlicha tadqiq etilmaganini ko‘rsatgan. Shuningdek, barqaror turizmni rivojlantirishda ekologik innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va yangi boshqaruv modellari muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Bu jarayonda yashil texnologiyalar, IoT (Internet of Things) tizimlari va aqlli turizm konsepsiyalari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday innovatsiyalarning paydo bo‘lishi butun dunyo bo‘ylab sayohatchilar va turistlarning, shuningdek tur agentliklarning yukini sezilarli darajada yengillashtirdi.

Bazi tadqiqotlarda barqaror turizm rivojlanishi ko‘plab muammolar bilan bog‘liq ekani, jumladan iqlim o‘zgarishi, resurslarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi va infratuzilma bosimi kabi omillar mavjudligi qayd etiladi. Shu bilan birga, turizm barqaror rivojlanish orqali iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foyda keltirishi ham mumkin. Sohadan keladigan daromatning bir qismini ekologik xavflarni oldini olish va yashil infratuzilmalarni joriy etishni yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatimizdagi iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. Olib borilgan bibliometrik tahlillar esa ekologik innovatsiyalar turizmda asosiy trendga aylanganini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, yashil innovatsiyalar turizmni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Barqaror turizm va innovatsiyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Innovatsiyalardan foydalangan holda, ekologik muammolarni kamaytirish (chiqindilarni kamaytirish, energiya tejash va boshqalar), turizm xizmatlarini yaxshilash va diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalar orqali boshqaruvni optimallashtirish, shuningdek turistlarning ekologik ongini oshirish barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar turizmda yangi xizmat turlarini yaratish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, innovatsion yondashuvlar (masalan, smart turizm, blockchain, raqamli marketing) turizm sohasida samaradorlikni oshirib, barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishning bir qancha imkoniyatlari va muammolari tahlil qilib borilgan. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra, yurtimizdagi Buyuk Ipak yo‘li hududlari juda katta turistik salohiyatga ega joylar hisoblanadi. Mamlakatimizning qadimgi savdo yo‘llarini tutashtirganligi, geografik jihatdan ustunligi, Markaziy Osiyo hududi sifatida o‘tmishda ham,

hozirgi davrda ham uning nufuzi baland bo‘lishini ta’minlab beradi. Bundan tashqari yurtimiz kelayotgan turistlar uchun ziyorat va madaniy turizmning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi hisoblanadi. Ammo ekologik va agro turizm hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, ekoturizm sohasini rivojlantirishda ba’zi yangiliklar va innovatsiyalar joriy etib borilmoqda. Misol sifatida Samarqand viloyatida agro-turizmni rivojlantirish orqali qishloq aholisi daromadini oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud bo‘lib, bularga:

- infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi
- ekologik boshqaruv tizimining sustligi
- innovatsion texnologiyalarning yetarli joriy etilmaganligi misol qilish mumkin.

Barqaror turizmni rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan bir qancha muammolar o‘rganilib, ular uchun ko‘plab yechimlar taklif etilgan. Bu muammolarga yuqorida takidlanganidek, iqlim o‘zgarishi va ekologik degradatsiya, resurslardan haddan tashqari foydalanish, turistlar soni ortishi natijasida bosim paydo bo‘lishi, aynan shu soha bo‘yicha innovatsiyalarning yetarli darajada joriy etilmasligi kabilar kiradi. Ushbu ko‘rsatilgan muammolarga yechim sifatida - past karbonli turizmni rivojlantirish, yashil texnologiyalarni joriy etish, turistlarning xulq-atvorini o‘zgartirish ya’ni ulardagi tabiatga nisbatan do‘stona munosabatni uyg‘otish, davlat hamda xususiy sektor hamkorligini yanada kuchaytirish kabi vazifalarni yo‘lga qo‘yish aytib o‘tilgan. Barqaror turizmni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, unda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar uyg‘unlashishi kerak.

Xulosa: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, barqaror turizm va innovatsiyalar zamonaviy turizm rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Barqarorlik turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlasa, innovatsiya uning samaradorligini oshiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy tadqiqotlar asosida xulosa qilib aytadigan bo‘lsak barqaror turizm hozirgi kundagi global ustuvor yo‘nalish hisoblanadi, innovatsiyalar esa ushbu jarayonning asosiy drayveridir. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud hisoblansada, biroq ekologik va innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish zaruriyati ham yo‘q emas. Hozirda bu muammolarni ekologik yondashuvlar va innovatsion yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish yo‘li bilan hal etish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylangan. Umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Kelajakda turizm sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun barqarorlik va innovatsiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Santos, V., Sousa, M. J., Costa, C., Au-Yong-Oliveira, M.* Tourism towards Sustainability and Innovation: A Systematic Literature Review. *Sustainability*. 2021. https://www.mdpi.com/2071-1050/13/20/11440
2. *Vrana, V.*Sustainable Tourism Development and Innovation: Recent Advances and Challenges. *Sustainability*. 2023. https://www.mdpi.com/2071-1050/15/9/7224
3. *Sartika, Rahimah A., Kusumawati A., Latifah Azmi F.* Eco-innovation leading the way: a bibliometric insight into sustainable tourism trends. *Innovation and Development*. 2026. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/2157930X.2025.2606581
4. *Karimov M., Okmullaev R., Saidmamatov O.* Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road. *Economies*. 2025. https://doi.org/10.3390/economies13090250